O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 378.1:17.021:004.422.8(575.1)

Azamat DJUMANQULOV,
PhD, Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: azamat.jumanqulov@mail.ru ORCID iD: 0009-0009-4749-8874

Dotsent, PhD G.Abdullayeva taqrizi asosida

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta’lim jarayonida talabalarning raqamli axborotdan foydalanish madaniyatini rivojlantirishda axloqiy qadriyatlarning o‘rni va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga jadal integratsiyalashuvi sharoitida talabalarning axborotni izlash, tanlash, tahlil qilish, saqlash va undan foydalanish jarayonida axloqiy me’yorlarga rioya etishi muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, raqamli axborot, axborot madaniyati, raqamli etika, axloqiy qadriyatlar, akademik halollik, axborot xavfsizligi, raqamli kompetensiya, axloqiy mas’uliyat, talaba, pedagogik jarayon, oliy ta’lim.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННОЙ КУЛЬТУРЫ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Аннотация

В данной статье освещаются роль и педагогическое значение этических ценностей в развитии культуры использования цифровой информации студентами в процессе высшего образования. В условиях стремительной интеграции цифровых технологий в образовательный процесс обосновывается важность соблюдения студентами этических норм при поиске, отборе, анализе, хранении и использовании информационных ресурсов как одной из ключевых педагогических задач.

Ключевые слова: Цифровое образование, цифровая информация, информационная культура, цифровая этика, этические ценности, академическая честность, информационная безопасность, цифровая компетентность, этическая ответственность, студент, педагогический процесс, высшее образование.

PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS’ MORAL CULTURE IN THE DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Annotatsion

This article examines the role and pedagogical significance of ethical values in developing students’ culture of using digital information in higher education. In the context of the rapid integration of digital technologies into the educational process, the study substantiates the importance of students’ compliance with ethical standards when searching for, selecting, analyzing, storing, and using information resources as one of the key pedagogical objectives.

Key words: Digital education, digital information, information culture, digital ethics, ethical values, academic integrity, information security, digital competence, ethical responsibility, student, pedagogical process, higher education.

Kirish. Oxirgi yillarda jadal sur’atlarda raqamlashib borayotgan zamonaviy jamiyatimizda insonlar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayni shu maqsadda, AKTlardan samarali foydalanishda uning o‘ziga xos xususiyatlarini anglash hamda tegishli xulq-atvor me’yorlarini bilish zarur. Hozirgi kunda kompyuter, planshet va mobil telefon kabi raqamli vositalarsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Albatta, texnoligiya sohasidagi bu muvafaqqiyatlar bizning ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq munosabatlarimizga ham ta’sir ko’rsatadi. 2020-yil barcha davlatlarda kuzatilgan Covid-19 pandemiyasi sharoitida masofaviy ta’limning joriy qilinishi esa ta’limni raqamli muhitga moslashtirishni yanada tezlashtirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ham tizimni raqamlashtirish bo‘yicha qator chora va tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi doirasida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish, raqamli ma’lumotlardan foydalanish, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan edi.

Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish axborotning ishonchliligi, akademik halollik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, mualliflik huquqiga rioya etish hamda raqamli resurslardan mas’uliyatli foydalanish bilan bog‘liq qator yangi pedagogik va axloqiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni faqat zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan cheklanmasligi lozim. Mazkur jarayon talabalarda raqamli madaniyat va axloqiy mas’uliyatni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

E.Yu. Malkova virtual etikani amaliy etikaning bir yo‘nalishi sifatida talqin qilib, uning asosiy vazifalariga virtual kommunikatsiya jarayonlarini axloqiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va baholash, mazkur sohadagi xulq-atvorni tartibga soluvchi axloqiy me’yor va tamoyillarni nazariy jihatdan asoslash, shuningdek, ushbu me’yor va tamoyillarga rioya etilishini ta’minlovchi mexanizmlarni ishlab chiqishni kiritadi[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Axloq jamiyat va umuman inson taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir. Axloq falsafasi – bu axloqni shaxsiyatni va xulq-atvorni belgilovchi ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib chiqadigan falsafiy fandir. Axloq falsafasi axloqni ham tarixiy hodisa sifatida, ham me’yoriy va ideal nuqtai nazardan ko‘rib chiqishi mumkin. Shu ma’noda, axloq falsafasi yoki axloq ham tahliliy, ham sintetik va srekulyativ xususiyat va funksiya bilan paydo bo‘lishi mumkin. Ya’ni faylasuflar ham mavjud ijtimoiy axloqni tahlil qilish va tushunishga harakat qilishlari va bizga ideal va umuminsoniy axloqiy tizimni taklif qilishlari mumkin. Axloqiy tarbiya - bu pedagogik xodimlar jamoasi va kattalarga hurmat, adolat, fuqarolik fazilati, o‘zi va yaqinlari uchun

mas’uliyat kabi asosiy axloqiy qadriyatlarni tushunish, qo‘llash va ularga g‘amxo‘rlik qilish imkonini beradigan o‘quv jarayonidir.

Axloq insonga o‘zining boshqa odamlar bilan munosabatlarini va ular oldidagi burchlarini baholashga sharoit yaratadi. Axloqiy tarbiya berish tarbiyani qadrlash uchun katta turtkidir. Qadriyat tasnifida axloqiy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli jamiyat hayotini xavfsiz, tartibli, hurmatli va mehr-muhabbat bilan davom ettirishi uchun insonning axloqiy qadriyatlari juda muhimdir. Talabalarning ijtimoiy va ma’naviy faolligini oshirishda axloq falsafasi va modulli ta’lim texnologiyalarining integratsiyasi katta rol o‘ynaydi. Turli tadqiqotlarda bu yondashuvlarning talabalar o‘rtasida axloqiy mulohazalar, ijtimoiy xulq-atvor va ma’naviy yuksalishni rivojlantirishdagi samaradorligi o‘rganildi. Talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi, ayniqsa, psixologiya, ularning kasbiy faoliyati uchun muhim bo‘lgan axloqiy yo'nalishlar va qadriyatlar tizimini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish samarali kasbiy ijtimoiylash uchun zarurdir. Falsafa ta’limi talabalarda axloqiy mulohazalar, ijtimoiy xulq-atvor va g‘azabni nazorat qilishning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Falsafiy bahslarda qatnashish axloqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Axloq falsafasining fan sohasi sifatida redagogik jarayondagi o‘rni inkor etilmaydi. Endilikda jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanish rarametrlari shaxsga yo’naltirilganlik nuqtai nazaridan baholanadi. Boshqas’ha aytganda, hozirgi sharoitda modernizatsiya qilinayotgan jamiyat insonrarvarlik tamoyillari asosida rivojlanayotgan ekan, shu jamiyatning ajralmas qismiga aylangan universitet va o’qituvs’hi faoliyati ham ma’naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanishi zarur.

O‘sib kelayotgan avlodning halollik, sadoqat, saxovatreshalik fazilatlarini yuksaltirishning ilmiy-uslubiy bazasini mustahkamlashning asosiy mazmun-mohiyati insonrarvarlik qadamlarini qo’yishdan iborat. O‘quv jarayoni insonrarvarlik qadriyatlariga asoslanishi kerak. Bunda ta’lim mazmuni (o’quv dasturlari, darsliklar va boshqalar), o’qituvchi va talaba munosabatlari, ota-ona va o’qituvchi munosabatlari, davlat muassasalari bilan ishlash, aloqa o’rnatish jarayoni yanada kengroq va samaraliroq natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi. Shuning uchun pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlarida - oliy, o’rta umumiy ta’lim, o’rta maxsus ta’lim tizimida “Axloq falsafasi” fani imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim o’rin tutadi. Bu borada orttirilgan tajriba almashish, ilmiy tahlillar, yangi pedagogik g‘oyalarni qo’llab-quvvatlovs’hi izlanishlar ham insonrarvarlik asosida qurilgan bilim, ko’nikma, odat va axloqiy fazilatlar tizimi oila va ta’lim hayotiga jadal ta’sir ko’rsatishi zarurligini isbotlaydi. Ko‘rinib turibdiki, bu teran g‘oyalarda insonrarvarlik fazilatlari shaxsga yo’naltirilgan mazmunga ega bo’lib, yosh avlodni idealistik, barqaror xarakterda tarbiyalash yo’llariga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda “Axloq falsafasi” fanini rivojlantirishda yuqori uslubiy yondashuvlar allaqachon o‘z haqiqiyligini ko’rsatmoqda. Muammoning ham tarixiy-pedagogik jihatlari, ham ijtimoiy mazmuni, pedagogik jarayon tajribasi uchun ahamiyati, yangi zamonaviy ta’limni rivojlantirish zaruriyati hisobga olinadi. Ushbu muammoning axloqiy, psixologik, pedagogik va falsafiy mohiyati nazariy jihatdan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga yo‘l ochib beradi va masalaning ijtimoiy qadriyatlarini oshiradi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari va kuzatishlar globallashuv sharotida yoshlarimizda o‘zini-o‘zi boshqarishga, milliy xarakterimizdagi ayrim holatlar, jumladan, itoatgo‘ylik, kattalarning gapini “ikki qilmaslik” kabilar salbiy ta’sir qilayotganligini e’tiborga olishimiz, bunday holatlar yoshlarda tashabbusni, “noan’anaviy” tarzda fikrlashni, harakat qilishda o‘ziga xoslikni, fikr va tafakkur tufayli sodir bo‘ladigan ijtimoiy faollikni susaytirayotganligini aniqlash imkonini berdi. Ushbu salbiy holatlardan chiqish uchun yoshlarda ro‘y beradigan voqea-hodisalarga to‘g‘ri baho berish salohiyati, aql va farosat uyg‘unligiga suyangan holda xulosa chiqarish hamda millat, Vatan manfaati yo‘lida o‘z shaxsiy pozitsiyasiga asoslanib harakat qilish, maslagida, tafakkurida islohotlar o‘tkazishiga shart-sharoit yaratadi va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

“Mamlakatimizdagi maktab axloqiy tarbiyasi umuman olganda siyosiy tarbiya, mafkuraviy tarbiya, axloqiy tarbiya va boshqalarni nazarda tutadiki, bu aslida ijtimoiy ong tarbiyasidir. Siyosiy ta’lim deganda talabalarda ma’lum siyosiy bilim, tajriba va e’tiqodlarni shakllantiruvchi ta’lim tushuniladi. Mafkuraviy ta’lim –talabalarning ma’lum dunyoqarashi va hayotga bo‘lgan qarashlarini shakllantiradigan ta’lim, axloqiy tarbiya – ularning axloqiy jihatdan yanada yuksalishiga katta yordam beruvchi tarbiya shaklidir”. [2]

Biroq, muammoni bu tarzda qo‘yish uslubiy nuqtai nazardan diqqat bilan o‘rganilishi kerak. Fan va ta’lim mazmuni o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar o‘rnatilgan qonuniyatlar va konsertual nazariyalarga asoslanib belgilanishi kerak.

Buyuk pedagog-tarbiyachi K.D.Ushinskiy aytganidek: “Hech qanday nizom va dastur, hech bir muassasaning sun’iy organizmi ta’lim-tarbiya ishida o‘qituvchi shaxsining o‘rnini bosa olmaydi”. [3]

Xulosa va takliflar. Shubhasiz, ta’limni ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish bugungi kunda hayotning eng muhim talabidir. Endilikda har bir davlatning moliyaviy qudrati nafaqat uning moddiy-texnik bazasi, fan-texnika taraqqiyoti imkoniyatlari, balki shaxslarninig kelajakka yo‘l ochadigan milliy-ma’naviy axloqiy qadriyatlar tizimiga egalik qilishi bilan ham bog‘liqdir. O‘zining buyuk kashfiyotlari bilan jahon ilm-fanining tarixiy missiyasini lol qoldirgan buyuk mutafakkir Albert Eynshteyn bir vaqtlar shunday yozgan edi: “Insoniyatning kelajagi ilmiy taraqqiyot ertasiga unchalik bog‘liq emas, balki inson axloqi va ma’naviyati ertasiga bog‘liqdir" [4]. Aynan shu nuqtai nazardan insonrarvarlashtirish g‘oyasi qadimdan ikki ma’noda - falsafiy va pedagogik ma’noda qo‘llanilgan.

ADABIYOTLAR

1. Малькова, Ye. Ю. Принципы виртуальной этики / Е. Ю. Малькова // Религия и нравственность в секулярном мире : материалы науч. конф. – СПб., 2001. – Вып. 20. – С. 112–115.
2. Djumanqulov A.A. Ta’limni modernizatsiyalash jarayonida axloq falsafasi fanini kredit-modul tizimida o‘qitishning pedagogik shart-sharoitlari. // ARES: Academic Research in Educational Sciyences. ISSN: 2181-1385, Volume.3, Issue 3, -T.: 2022. cite-factor: 0,89 | sis: 1,12. sjif: 5,7. -B.815-822.
3. Ushinskiy K.D. Sobr. soch., t.2. - M-L.: - 1948, - SS. 63-64 s.
4. Ayzekson U. Eynshteyn. Yego jizn i yego Vselennaya. - M.: AST SORRUS 2023. - 832 s.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ta’lim to‘g‘risida: [2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son]. – Toshkent, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida: [2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son]. – Toshkent, 2023.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
8. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti, 2006. – 159 b.
9. Asamaddinov E. Axloqiy madaniyat va uning rivojlanish xususiyatlari: falsafa fan. nomzodi dis. ... Avtoref; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, ToshdU. - Toshkent, 1999.
10. Begimqulov U.Sh. Redagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007
11. Xudoyqulov X. J. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O’quv qo’llanma. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo,. 2020.